

## ZAMONAVIY XALQARO MUNOSABATLARDA JAMOATCHILIK DIPLOMATIYASI

**Boyirbekova Malikaxon Azizbek qizi**

Alfraganus universiteti ijtimoiy fanlar fakulteti xalqaro munosabatlar yonalishi 2 - kurs talabasi

**Anotatsiya:** Xalq va diplomatiya tushunchasi; xalq diplomatiyasi nima; jamoatchilik diplomatiyasining asosiy maqsadlari; madaniy diplomatiya

**Kalit sozlar:** Diplomatiya, xalq, rasmiy aloqalar, siyosat, global, yumshoq kuch,

Zamonaviy diplomatiyaning eng muhum ko'rinishlaridan biri sifatida bugungi kunda jamoatchilik diplomatiyasi rivojlanib bormoqda. Jamoatchilik yoki xalq diplomatiyasi zamonaviy halqaro muloqotning jadal rivojlanib borayotgan yangicha turidir. Jamoatchilik diplomatiyasi haqida gapirishdan oldin jamoat yoki xalq va diplomatiya tushunchalarini tariflab o'tsak xalq va diplomatiya tushunchalari xalq diplomatiyasi yondashuvining asosini tashkil qiluvchi asosiy komponentlardir.

Xalq -bu odamlar jamoasi bo'lib, ularning tili, san'ati, madaniyati, dini va boshqa jihatlarini birgalikda aks ettiradi. Xalq tushunchasi keng bo'lib jihatlari bilan birlashtiriladigan odamlar yig'indisiga aytildi. Masalan o'zbekiston aholisi va o'zbek xalqi deymiz.

Diplomatiya- bu tinch hamkorlik, muzokaralar, hamjihatlik va millatlar o'rtasidagi totuvlik. Suveren mamlakatlardagi rasmiy aloqalar, tashqi siyosatning asosiy vositasi. Umuman olganda diplomatiya diplomatiya ishonchni mustahkamlash usulidir.

Demak xalq diplomatiyasi - bu odamlar jamoasining bir birlari bilan o'zaro do'stlik, hurmat va ishonchga asoslangan munosabatlaridir. Xalq diplomatiyasi xalqaro munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xalq diplomatiyasining asosiy sharti uning oqilona, ishonchli va himoyalangan bo'lishidir. Umumajahon qonun qoidalarini buzuvchi, adolatdan yiroq, tahdid, bezorilik, agresiya kabi noqonuniy usullarga asoslangan, inson xuquqlarini muntazam ravishda buzayotgan yoki boshqa bir davlat hududiga kirib brogan mamlakat xalq diplomatiyasini samarali olib borolmaydi. Xalq diplomatiyasi eng asosiy maqsadlaridan biri bu davlatning xalqaro imijini yaratish, xalqlar o'rtasida o'zaro ishonch va do'stona muhitni qaror toptirishdir. An'anaviy ma'noda diplomatiya hukumatlar o'rtasidagi muloqot shakli hisoblangs, xalq diplomatiyasini esa o'zga mamlakatlar aholisi bilan to'g'ridan-to'g'ri munosabat o'rnatish tizimi deyish mumkin. Xalq diplomatiyasi konsepsiysi, shuningdek, boshqa xalqaro munosabatlar tizimida, avvalo, xalqlar manfaatlarini ilgari surish va o'z-o'zini boshqarish tizimi bilan ajralib turadi. Xalq diplomatiyasi tushunchasi, garchi uning kategorial apparati aniq o'rnatilmagan bo'lsa-da, bugungi kundal hayotimizdan mustahkam o'ren egallay boshladi. U fuqarolik diplomatiyasi faoliyatini o'z ichiga oladi, shu bilan birga, siyosatchilar va hukumatlarning boshqa davlatlarning xalqiga siyosiy yo'nalishini tushuntirish maqsadida to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilishlarini ham nazarda tutadi. Davlatlararo munosabatlarning rivojlanishi endilikda nafaqat davlatlararo va davlat organlari faoliyati bilan, balki keng jamoatchilikka ham bog'liq. Shu sababli, xalq diplomatiyasining global siyosiy jarayondagi roli va uning boshqa aktorlar bilan o'zaro ta'sir mexanizmlarini o'rganish bugungi kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi.

Shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, zamonaviy xalq diplomatiyasi, avvalambor, ikki tomonlama muloqotdir. Shuning uchun xalq diplomatiya doirasida tadbirlarni o'tkazishda va strategiyalarni ishlab chiqishda mamlakat madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari, ikki tomonlama aloqalar tarixi va hattoki mamlakatlardagi ichki siyosiy va ijtimoiy vaziyat kabi omillarni ham hisobga olish lozim. Zamonaviy globallashuv va axborot texnologiyalarining rivojlanishi sharoitida xalq diplomatiyasi yangi sifatga

ega bo'lib bormoqda: bir tomondan, xalq diplomatiyasi xalqaro voqeliklarga zudlik bilan munosabat bildirish va ta'sir ko'rsatishning samarali vositasi bo'lsa, boshqa tomondan, u diplomatiyaning an'nanaaviy shakli samarasiz hisoblangan sharoitlarda, davlatning yoki davlatlararo munosabatlarning boshqa aktorining milliy manfaatlarini muvaffaqiyatli ilgari surish instrumentidir. Xalq diplomatiyasi faoliyati-jamoat tashkilotlari va birlashmalari, birodarlashgan shaharlar darajasidagi aloqalar, ijtimoiy siyosiy harakatlar, xalqaro nodavlat tashkilotlari bilan munosabatlar hamda madaniy, ilmiy, ta'lif dasturlarini amalgalashishga oshirish bo'yicha hamkorlikni o'z ichiga qamrab oladi. Xalq diplomatiyasi istiqbolda Markaziy Osiyo xalqlarida ijtimoiy fikr plyuralizatsiyasi asosida yagona axborot makonini yaratishga yordam bergani holda mintaqaviy integratsiyaning ajralmas komponentlaridan biri bo'lib xizmat qiladi. Bugungi kunda Markaziy Osiyo mintaqasida o'zaro hamkorlik, yaxshi qo'shnichilik va integratsiyalashuv sharoitida xalq diplomatiyasi yo'nalishlaridan foydalanish, uning tashkiliy huquqiy va institutsional asoslarini yaratish talab etiladi. Mintaqamizda xalq diplomatiyasini qo'llab-quvvatlovchi va yanada rivojlantirish yo'nalishlarini belgilab beruvchi alohida ilmiy-tadqiqot institutini tuzish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bu, o'z navbatida, Markaziy Osiyo mintaqasining uyg'un ravishda barqaror taraqqiyotiga, xalqlarimiz o'rtaida tinchlik, hamjihatlik, diniy va milliy bag'rikenglikni ta'minlashda va siyosiy integratsiyani yanada kuchaytirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Xalq diplomatiyasinining bir qancha ko'rinishlari mavjud bolib ular; madbuot anjuanylari ommaviy axborot vositalari almashinuv dasturlari, grantlar va madaniy diplomatiya kabi vositalar orqali amalgalashishga oshiriladi. Hozirgi kunda global yoki mintaqaviy siyosiy yetakchilikga intilayotgan mamlakatlar o'zlarining milliy xalq diplomatiyasi tizimlarini faol rivojlantirmoqdalar. Hukumatlar mahsus grantlar ajratadilar, talimva gumanitar loyihalarni ishlab chiqarishga katta mablag' sariflamoqda va internet resurslarini qo'llab quvatlashni kuchaytirmoqda. Xalq diplomatiyasinining ko'rinishlaridan biri madaniy diplomatiya tshunchasi ham mavjud bo'lib, u halq o'rtaida samiyimiy va do'stona muhitni yaratish uchun asosan madaniy vositalardan foydalanadi yani fikir almashish, axborot, san'at til adabiyot va boshqalar. Madaniy diplomatiyaning asosiy maqsadi davlatlar o'z madaniyati, madaniy merosi va san'ati haqida xorijiy jamoatchilikni habardor qilish hamda shu orqali davlatlar va xalqlar o'rtaida ishonch va do'stona xamkorlik muhitini yaratishdir. Madaniy diplomatiya davlatning yumshoq kuch qudratini namoyon etadi vas hu orqali uning tasirini mustahkamlashga hizmat qiladi. Yumshoq kuchning asosiy manbalari sirasiga madaniy va tarhiy merosi, tili, an'analari, qadiriyatlari, turistik salohiyati, milliy taomlari, memoriy yodgorliklari, jozibador shaharları, dunyoga mashhur universitetlari, muzeylari, kino san'ati va hokazolar.

Xulosa qiladigan bo'lsak hozirgi glaballashuv jarayonida barcha davlatlar o'zining tasirini kuch yo'li bilan emas, xalq diplomatiyasi orqali yoyishga harakat qilmoqda. Xalq diplomatiyasi institutlari dunyo mamlakatları mentalitetini anglash, yaxshi qo'shnichilik, do'stlik va hamkorlikni yanada mustahkamlashga hissa qo'shish uchun yaxshi asos bo'lib xizmat qilmoqda. Dunyo xalqlari manfaati yo'lida madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish, madaniy xilma-xillikni saqlash va targ'ib qilish, turli xalqaro tadbirlar doirasida mintaqaning madaniy, tabiiy merosini o'rganish sohasidagi hamkorlik esa o'zaro aloqalarni yanada rivojlantirish va kengaytirishga yordam beradi.

## Foydalilanigan adabiyotlar:

1. <https://yuz.uz/uz/news/xalq-diplomatiyasi--tashqi-siyosatning-muhim-modeli>
2. Yangi O'zbekiston nomli gazeta.
3. <https://cyberleninka.ru/>
4. <https://scienceweb.uz/>